

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYA**

Toshkent – 2024

<i>Normurodova S.B., Shodmonov R.G'. Til va marketing</i>	166
<i>Odilova D.O., Shodmonov R.G'. East asia counturies languages and cultures .</i>	171
<i>Nabiyeva N.A., Shodmonov R.G'. Til o'qitish usullari; o'rganilayotgan tillarni o'qitish uchun qo'llaniladigan usullar, til o'rganishning foydali tomonlari.....</i>	176
<i>Narzullayeva A.Sh., Shodmonov R.G'. Onlayn til o'rganish platformalari</i>	180
<i>Junaydullaxonova M.A., Shodmonov R.G'. Kitobxonlik va uning mohiyatini anglash</i>	184
<i>Yaxshiboyeva M.B., Shodmonov R.G'. Dunyo tillarining soni va turkiy til</i>	189

II SHUBA

<i>Абдалов А.Б. Роль развития рынка ценных бумаг в дальнейшем повышении инвестиционной привлекательности страны</i>	193
<i>Saidova I.X. Investitsion muhit va uni belgilovchi omillar (kambag'allik darajasi va o'zbekiston sharoitida unga ta'sir qiluvchi omillar.)</i>	199
<i>Sunnatullayeva M.G'. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar - xalq kelajagi uchun poydevor masalalari.....</i>	205
<i>Kenjayev N. Temuriyzoda shohruh mirzo hukumronligi davrida temuriylar saltanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati.....</i>	208
<i>Атаджанова А.У. Определить концентрированной системы в составе чёрный смородины выращиваемой в хорезмской области.....</i>	211
<i>Mohinur Sh.Sh., Shodmonov R.G'. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limning o'rni.....</i>	213
<i>Sobirjonova D., Shodmonov R.G'. Koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.....</i>	218
<i>Sayfullayeva F., Shodmonov R.G'. Bolalardagi senzitiv davr va nutq rivojlanishi</i>	222
<i>Xamidullayeva M.J., Shodmonov R.G'. Maxsus pedagogika va uning bo'limlari</i>	226
<i>Alieva F., Shodmonov R.G'. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar</i>	230
<i>Qurbonova K.A., Shodmonov R.G'. Bolalarda musiqani rivojlantirish.....</i>	234
<i>Komilova R.D., Shodmonov R.G'. Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar</i>	237
<i>Turlibekova O., Shodmonov R.G'. Aqli zaif tushunchasi</i>	242
<i>Abdugafurova A., Shodmonov R.G'. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar....</i>	247
<i>Zayniddinova M.Sh., Shodmonov R.G'. Daun sindromli bolalar</i>	251

MAXSUS PEDAGOGIKA VA UNING BO`LIMLARI

Xamidullayeva Muslima Jaxongir qizi¹

*¹Xalqaro Nordik universiteti
Maxsus pedagogika(logopediya)
1-kurs 1–MP-23 guruh talabasi*

Shodmonov Ruslan G`olib o`g`li²

*²Xalqaro Nordik universiteti doktoranti
r.shodmonov@nordicuniversity.org*

Annotatsiya: maxsus pedagogika va uning bo`limlari, logopediya, surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika haqida ma`lumot.


Kalit so`zlar: maxsus pedagogika, korreksiya, ijtimoiy adaptatsiya, rehabilitatsiya, inkluziv ta`lim, bolalardagi nuqsonalar.

Yurtimizda hozirgi kunda sog`lom bolalar bilan rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalar, bir necha nuqsonga ega , nutqida nuqsoni bor va yana harakat tayanchida buzulishlari bo`lgan bolalar birga yashaydi. Mamlakatimizdagi ijtimoiy va tashqi ta`sirlar natijasida ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bo`lgan bolalar ko`paymoqda. Umumjahon so`g`liqni ekologik saqlash tashkiloti ma`lumotlariga ko`ra, dunyoda bunday insonlar soni 13% ga yaqinligiga dalolat beradi. Shulardan 10 % turli ruhiy va jismoniy nuqsonlarga ega bo`lgan bolalar, 3 % intellektida kamchiligi bo`lgan bolalar. Yurtimizda nogironlikka ega bo`lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilib kelmoqda. Barcha yoshlar ta`lim olish huquqiga ega, kamchilikka ega va alohida yordamga muhtoj bolalar ham.

O`zbekistonda Maxsus pedagogika bo`yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. S. A. Aytmetova, M. Y. Ayupova, D. A. Gordiyenko, Q. Q. Mamedov, L. R. Mo`minova, P. M. Po`latova, V. S. Rahmonova, M. I. Soatov, R. Shomahmudova va boshqalarlarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalarning nuqsonlarini aniqlash, to`g`rilash va bartaraf etishning nazariy va amaliy masalalariga bag`ishlangan qo`llanma, dastur, ma`ruza matnlari, uslubiy tavsiya va maqolalari e`lon qilingan.

O`zbekiston Respublikasining Kontitutsiyasini 19 – moddasiga ko`ra, O`zbekiston Respublikasining fuqarolari va davlat bir - biriga nisbatan bo`lgan huquqlari va burchlari bilan bog`liqdirlar.³⁹ Butunjahon bolalariga xos bo`lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya, O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni, “O`zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” kabi me`yoriy hujjatlarda ko`rsatilishicha barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor alohida yordamga muxtoj bolalar ham mehnat qilish, ta`lim olish, hayotda o`z o`rnini topib ketish huquqlariga egadirlar. Maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan maxsus pedagogika fani shug`ullanadi.

³⁹ O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi



1-rasm. Maxsus pedagogikaning bo'limlari⁴⁰

Maxsus pedagogika – jismoniy va ruhiy rivojlanishida kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarning xususiyatlarining, ularning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan. Korreksiya so'zi lotincha- tuzatish, bartaraf etish degan ma'noni angalatadi. Maxsus pedagogika fanining maqsadi – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiylashuvi, ijtimoiy adaptatsiyasi va rehabilitatsiyasini amalga oshirish uchun zarur shart – sharoitlarini o'rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarini iloji boricha ertaroq tashxis qo'yib, bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Masalan, bola nutqida og'ir nuqsoni bo'lsa, ilk yoshdan to'g'ri tashxis qo'yib uni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan (masalan, aqli zaiflik) uni to'liq bartaraf etib bo'lmaydi.

Maxsus pedagogikada ham yana shunday nuqsonlar uchrashi mumkin, undan nuqsonlarni tuzatib ham korreksiyalab bo'lmaydi ham masalan, karlik va ko'rlikni ayrim turlar. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash, o'rnini bosish mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl alifbosi ya'ni shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyatida muammosi bo'lgan bolalar esa imo-ishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin. Maxsus pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi.

⁴⁰ Muallif ishlanmasi

Oligofrenopedagogika⁴¹ (yunoncha oligos – kam, fren – aql), soʻzlaridan olingan, – aqliy tomondan zaif bolalarning taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanadigan fan;

– Surdopedagogika (lotincha surdus – kar, gung soʻzidan olingan) eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning taʼlim tarbiyasi bilan shugʻullanadigan fan;

– Tiflopedagogika (yunoncha tiflos – koʻr, soʻqir soʻzidan olingan) – koʻzi ojiz bolalarning taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanadigan fan;

– Logopediya (yunoncha logos – soʻz, padeo – tarbiya soʻzlaridan olingan) – ogʻir nutq nuqsonlarini oʻrganish, oldini olish, bartaraf etish yoʻllari, usullarini oʻrganadigan fan.

Dastlab surdopedagogika va tiflopedagogika paydo boʻlgan 1770-yil karlar uchun Ispaniyada, 1784-yil koʻrlar uchun Parijda maxsus muassasa ochilgan. Keyinchalik logopediya va oligofrenopedagogikaga asos solingan. Nuqsonli va psixofizik kamchiligi bor bolalarning ruhiy qonuniyatlarini oʻrganuvchi maxsus psixologiya, shuningdek, taʼlim tarbiya berish, nuqsonlarni tuzatish, tiklash vositalarini ishlab chiquvchi surdotexnika va tiflotexnika ham Defektologiyaga kiradi. Defektologiya anatomiya, fiziologiya, patofiziologiya, nevrologiya, nevropatologiya, eshitish, koʻrish va nutq patologiyasi, maktab gigiyenasi, umumiy va pedagogik psixologiya, pedagogika, tilshunoslik, bolalar psixologiyasi fanlar bilan uzviy bogʻlangan. Oligofrenopedagogika predmeti, maqsadi va vazifalari yordamchi maktab oʻquvchilarining aqliy faoliyat, tafakkur madaniyatini imkon qadar shakllantirish, aqli zaif oʻquvchilarga taʼlim-tarbiya berish jarayonining samarali yoʻllarini oʻrgatish, yordamchi maktablarning maqsad va vazifalari haqida maʼlumot berish kabi vazifalarni oʻz oldiga qoʻyadi.

Oligofrenopedagogika fani oʻz oldiga quyidagi maqsadlarni qoʻygan:

Yordamchi maktabda maxsus taʼlim-tarbiya berishning mazmun mohiyatini anglatish

Aqli zaif oʻquvchi shaxsini rivojlanishining asosiy omillari, yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kabi masalalar, taʼlimning maʼlumot beruvchi va korreksion rivojlantiruvchi masalalariga koʻproq eʼtibor qaratish

Yordamchi maktabda oʻquvchilar tarbiyasiga oid tarbiya nazariyasi va metodikasi

2-rasm. Oligofrenopedagogika fani oʻz oldiga quyidagi maqsadlar⁴²

⁴¹ Maxsus pedagogika M.U.Xamidova

⁴² Muallif ishlanmasi

Surdopedagogika (lotincha «surdis» — soʻzidan olingan boʻlib «karlik» degan maʼnoni bildiradi) defektologiyaning bir tarmogʻi boʻlib, eshitishda nuqsoni boʻlgan shaxslar taʼlim - tarbiyasi masalalari hamda muammolari bilan shugʻullanuvchi fandır. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning taʼlim-tarbiyasi Yevropadagi qator mamlakatlarda olib borilgan. Kar bolalarni yakka oʻqitish oʻsha vaqtning buyuk olimi Djerolamo Kardano (1501-1576) «karlik va soqovlikka» fiziologik tushuncha berdi. U tomonidan birinchi boʻlib, karlar bilan ishlash metodi ishlab chiqildi.

Tiflopedagogika (yunoncha tiflos – koʻr, soʻqir soʻzidan olingan) koʻrish jarayoni chuqur buzilgan shaxslarni tarbiyalash va oʻqitish bilan shugʻullanuvchi fan. Tiflopedagogikaning tabiiy ilmiy asosi I.M. Sechenov va I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyati toʻgʻrisidagi taʼlumoti sanaladi. Tiflopedagogikaning eng muhim vazifasi bolalarda saqlanib qolgan koʻrish imkoniyatlaridan oʻqish jarayonida toʻgʻri foydalanish va uni rivojlantirish, koʻrish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit vujudga keltirish, taʼlimning texnika vositalarini qoʻllashdan iborat. Tiflopedagogika umumiy va maxsus pedagogika, psixologiya, fiziologik optika, oftalmologiya, pediatriya, maktab gigiyenasi, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, tilshunoslik, tiflotexnika fani maʼlumotlariga suyanadi.

Logopediya (yunoncha logos – soʻz, padeo – tarbiya soʻzlari dan olingan) – ogʻir nuqt nuqsonlarini oʻrganish, oldini olish, bartaraf etish yoʻllari, usullarini oʻrganadigan fan pedagogika fanining tarmogʻi. Nutqdagi kamchilik (duduqlik, til rivojlanmaganligi, oʻqish va yozuvdagi nuqson) sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yoʻllarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus taʼlim va tarbiya vositasida oʻrganadi. Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari dastlab XVII asrda Yevropa mamlakatlarida surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tadqiq etila boshladi. XX asrga kelib logopediya mustaqil fan sifatida shakllandi, uning maqsad va vazifalari, metodik asos va tamoyillari, boshqa fanlar bilan aloqasi masalalari ishlab chiqildi. Logopediyaning asosiy vazifalari: nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyati ontogenezini oʻrganish nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi, alomatlari va darajalarini aniqlash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maxsus pedagogika jamiyat uchun ham tibbiyot uchun ham zarur ekan. Sogʻlom bolalar qatorida rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar ham taʼlim tarbiya olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.U Xamidova. Maxsus pedagogika. -T.: "Fan va texnologiya", 2018, 168 bet
2. Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2014, 368 bet
3. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. - T: Oʻzbekiston fayllasufllari milliy jamiyati mashriyoti, 2007. - 560 bet